Vol. 1, Issue 2

YEVROPADAGI TURKISTONLIK O‘ZBEK MUHOJIRLARI JAMOALARINING SHAKLLANISHI: GEOGRAFIK TARQALISH, IJTIMOIY INTEGRATSIYA VA MILLIY UYUSHMACHILIK JARAYONLARI

Elmurodova Nilufar Baxtiyor qizi

Buxoro innovatsion ta‘lim va tibbiyot universtiteti assistenti

BuxDU maqsadli tayanch doktoranti

elmurodovanilufar88@gmail.com +998 91 445-97-00

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrda Yevropa mamlakatlarida turkistonlik o‘zbek muhojirlari jamoalarining shakllanishi, ularning geografik tarqalish xususiyatlari, mahalliy ijtimoiy muhitga moslashuvi hamda milliy uyushmalarning vujudga kelish jarayonlari tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Xususan, Turkistondagi siyosiy o‘zgarishlar, sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, siyosiy muhojirlik va Ikkinchi jahon urushi bilan bog‘liq tarixiy voqealarning o‘zbeklarning Yevropa mamlakatlariga ko‘chib borishiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, muhojirlarning turli mamlakatlarda jamoaviy aloqalarni yo‘lga qo‘yishi, milliy tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishi, matbuot va ma’rifiy tashabbuslar orqali tarixiy xotira, ona tili hamda madaniy qadriyatlarni saqlashga qaratilgan sa’y-harakatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Turkiston, o‘zbeklar, muhojirlik, Yevropa, diaspora, migratsiya, geografik tarqalish, ijtimoiy integratsiya, milliy uyushmalar, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, milliy birdamlik

O‘tgan asrning 70-yillariga kelib xorijda yashayotgan vatandoshlarimiz bilan aloqalarni tiklash uchun yurtimizda birmuncha ishlar amalga oshirilgan. Ana shunday ishlardan biri bu Vatan jamiyatining tashkil etilishidir. “Vatan” jamiyati xorijdagi o‘zbek vatandoshlar bilan madaniy aloqalarni mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan. Bu jamiyat 1975-yilda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va 1976-yilda

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining qarorlari asosida ish boshlagan. Jamiyatning asosiy maqsadi xorijdagi vatandoshlar va ularning tashkilotlari bilan madaniy aloqalarni rivojlantirishdir. Jamiyatning dastlabki yillarda uch bo‘limi bo‘lgan, keyinchalik esa ikki bo‘lim asosida faoliyat yuritgan. “Xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalar bo‘limi” Yaqin va O‘rta Sharq, Yevropa va Amerika qit’alarida yashovchi o‘zbeklar bilan aloqalarni mustahkamlashda muhim vazifalarni bajargan. Jamiyat faoliyati davomida viloyat bo‘limlari tashkil etilgan. Mazkur jamiyat xorijdagi o‘zbek tilida faoliyat yurituvchi tashkilotlar, klub va jamiyatlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan. Masalan, 1978-1980 yillarda Afg‘oniston Respublikasi maorif vazirligi huzuridagi o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganish markazi, Afg‘oniston radiosi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan. Xorijdagi o‘zbek vatandoshlarining mustaqil jamiyatlari, masalan, Germaniya, Turkiya va AQShda tashkil etilgan. Bu jamiyatlar o‘zlarining nashrlariga ega bo‘lib, milliy til, tarixiy urf-odatlar va madaniyatni targ‘ib qilish bilan shug‘ullanadi.

“Vatan” jamiyati xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashda o‘zining maxsus chet ellik muxbirlari orqali ish olib borgan. 1980-yillarning boshida bu muxbirlar soni 600 kishiga yetgan. Jamiyat Avstraliya va Buyuk Britaniyada yashovchi o‘rtaosiyolik vatandoshlar bilan dastlabki aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. “Vatan” jamiyati o‘z mamlakatlarida turli reaktsion xarakterga ega bo‘lgan tashkilotlarga a’zo bo‘lgan o‘zbek vatandoshlar bilan qon-qardoshlik va do‘stlik munosabatlarini o‘rnatishga intilgan. Jamiyatning faoliyati davomida, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash uchun turli tadbirlar va loyihalar amalga oshirilgan. Bu jarayonda jamiyatning viloyat bo‘limlari, sanoat korxonalari, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, jamoat tashkilotlari va madaniy ma’rifiy birlashmalar ham faol ishtirok etgan. “Vatan” jamiyati o‘zining dastlabki davrlaridan boshlab, xorijdagi o‘zbek tilida faoliyat yurituvchi muassasalar va tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga kirishgan. Bu jarayonda jamiyatning asosiy maqsadi xorijdagi vatandoshlar va ularning tashkilotlari

bilan madaniy aloqalarni mustahkamlashdan iborat bo‘lgan. Jamiyatning bu boradagi sa’y-harakatlari natijasida, xorijdagi o‘zbek vatandoshlarining milliy madaniyat va urf-odatlarini saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab loyihalar amalga oshirilgan. Bu esa, o‘z navbatida, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilgan. 1986-yilga kelib, “Vatan” jamiyati Yaqin va O‘rta Sharqdagi 8 mamlakat, G‘arbiy Yevropa, Amerika, Afrika singari 11 mamlakatda istiqomat qiluvchi o‘zbek vatandoshlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatdi. Biroq, 80 yillarning birinchi yarmi davomida “Vatan” jamiyati o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmagan. Jamiyat tashabbuskorligi va jamoatchilikning ushbu yo‘ldagi faoliyatiga turli takliflar to‘liq qo‘llab quvvatlandi. O‘zbek vatandoshlariga vataniga mehrini saqlab qolgan, unga intilib yashovchi insonlar sifatida emas, balki ko‘pincha “sotqin”, “g‘oyaviy muxoliflarimizning yugurdagi”, “sinfiy dushman” sifatida qarash ustunlik qilgan. Ko‘plab o‘zbek vatandoshlar ham “Vatan” jamiyati faoliyatiga “hadiksirash”, “qo‘rquv bilan”, “tortinibroq” munosabatda bo‘lganlar va uning faoliyatidan har doim ham qoniqmaganlar. 1987-yilda Myunxendagi turkistonliklar jamiyati boshlig‘i Murod Ahmedov bilan suhbatlashgan Bernora Korneeva shunday deydi: “Murod Ahmedov bilan suhbat qilganimda, u aytdiki, “Vatan” jamiyatida biz vatandoshlar 1983-yili mehmon bo‘lganimizda, ushbu jamiyat raisi R. Bobojon bilan suhbatimiz quruq muloqotdan iborat bo‘ldi. Biz faqat uning ijodi bilan tanishdik, xolos. O‘zbekistondagi iqtisodiy va madaniy hayot, boshqa shoirlar ijodi, umumiy turmush haqida tashviqot ahamiyatiga ega bo‘lgan suhbatlarga muhtoj bo‘lib qaytdik.” Suriya va boshqa mamlakatlardagi o‘zbek vatandoshlar ham “Vatan” jamiyatidan qoniqmaganliklarini bildirganlar. Shunga qaramay, jamiyat xorijdagi o‘zbek vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashda bir qator ishlarni amalga oshirgan. Ular o‘rtasida qavm-qarindoshlikni mustahkamlash, avlodlar bir-birlarini topishlari, doimiy maktub almashuvlarini ta’minlash, va xorijdan O‘zbekistonga tashrif buyurgan vatandoshlar uchun uchrashuvlar tashkil etishda yordam bergan. “Vatan” jamiyati va

uning viloyat bo‘limlari yordamida o‘nlab vatandoshlar O‘zbekistonda mehmon bo‘ldilar.

1977-1983-yillarda Andijon viloyatiga Iordaniyadan Tavfiq Rahim, Suriyadan Burxon al-Buxoriy, Afg‘onistondan Ahmad Mansur va boshqalar tashrif buyurishdi. 1976-1980-yillarda Farg‘ona viloyatiga 121 xorijdagi vatandoshlar kelgan, viloyat vakillaridan 206 kishi esa o‘zbek vatandoshlar yashayotgan mamlakatlarda bo‘lganlar. 1985-1989-yillarda Buxoroga Turkiyadan Alibek Oydin, Fransiyadan Hasan Parves al-Buxoriy, Xitoydan Fayzullaev Tursun va boshqalar tashrif buyurishgan. Ular o‘z oilalari bilan kelishdi. Umuman, 1985-yilda 32 vatandosh, 1987-yilda 38 o‘zbek vatandosh respublikamizda mehmon bo‘ldilar. Samarqand viloyatida 1980-1985-yillarda Afg‘onistondan Boboqilich Davron, Turkiyadan Chapan Chilik va boshqalar kelgan. Namangan viloyatiga esa qirqga yaqin o‘zbek vatandoshlar kelishdi. Ularning qarindoshlarini topishda “Vatan” jamiyati hamkorlik qilgan. “Vatan” jamiyati va uning viloyat bo‘limlari yordamida xorijdan O‘zbekistonga tashrif buyurgan vatandoshlar Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkentda bo‘lib, tarixiy yodgorliklar bilan tanishganlar, ko‘plab fabrika va zavodlarda bo‘ldilar. Ular bilan kolxoz va sovxozlarda, oliy o‘quv yurtlari va maktablarda uchrashuvlar uyushtirildi. “Vatan” jamiyati Buxoro viloyati yordamida Niderlandiyada yashovchi Jamol Sharopov oila a’zolari bilan har ikki yilda Buxoroga kelib turishga muvaffaq bo‘lishgan. Ularning bolalari Buxoro pioner lagerlarida dam olishdi. Jamol Sharopov va Daroy Bakr maktab kollektivlari bilan uchrashdilar va o‘quvchilarga esdalik sovg‘alar berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азамова Г.А. Хориждаги ўзбеклар: ижтимоий-сиёсий ва ҳуқуқий муаммолари: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 1995. – 116 б.
2. Andican, A. Ahat. Cedidizmden Bağımsızlığa Hariçte Türkistan Mücadelesi / A. Ahat Andican. – İstanbul: Emre Yayınları, 2020. – 308 s.

3. Яссавий, Ш. Туркистон аччиқ ҳақиқатлари / Ш. Яссавий. – Истанбул, 1984. – 199 б.(Arab imlosidagi o‘zbek tilida).; Andican, A. Ahat. Cedidizm’den Bağımsızlığa Hariçte Türkistan Mücadelesi. – Istanbul: Emre Yayınları, 2003. – 942 bet.

4. Ҳайитов Ш.А. XX асрда ўзбек муҳожирлиги тарихи: Тарих фанлари доктори (DSc) дисс. – Тошкент, 2009. – 284 б

5. Ҳайитов Ш.А. Туркиядаги ўзбеклар этнографиясининг Ўзбекистон ўзбеклари билан қиёсий таҳлили // Тарихий хотира: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – VIII китоб. – Бухоро, 2015. – Б. 87–90.

6. Ҳайитов Ш.А. Туркияга ўзбеклар кўчиб боришининг тарихий босқичлари // Тарихий хотира: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – VIII китоб. – Бухоро, 2015. – Б. 36–38.